



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 3 - mart

VI-59-51-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi budjet parametrlariga tegishli o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi budjet parametrlarini belgilangan xarajatlariga tegishli o'zgartirish kiritish maqsadida Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasi, Xalq deputatlari tuman kengashining 2022-yil 31-dekabrda "Angor tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to'g'risida"gi VI-57-266-8-109-K/22-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 05/21-32/355-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 14-martda 1111-son bilan ro'yxatga olingan Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga asosan 2023-yilgi mahalliy budjet parametrlarida belgilangan xarajatlarini rejasi 23267,0 (Yigirma uch million ikki yuz oltmish yetti) ming so'mga tegishli o'zgartirish kiritilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrda VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga quyidagicha o'zgartirish kiritilsin:

2-ilovasi I-pozitsiyasi 6-satrdagi «3600701» raqami «3577434» raqami bilan, 24-satrdagi «7251» raqami «30518» raqami bilan almashtirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov